



PAPER

SALJUQIYLAR DAVLATI TASHKIL TOPISHINING TARIXIY SHART-SHAROITLARI

Kubayev Ro'zimurod Hikmatillayevich^{1,*}

¹O'zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti 2-kurs magistranti

* kubayev@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada Saljuqiylar davlatining tashkil topishiga olib kelgan tarixiy shart-sharoitlar tahlil qilingan. Asosiy e'tibor XI asr boshlarida Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq hududlarida yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik hamda markazlashgan davlatlarning zaiflashuviga qaratilgan. Shu jarayonda siyosiy maydonda yuzaga kelgan bo'shliq yangi kuchlarning shakllanishi uchun qulay sharoit yaratgani ko'rsatib berilgan. Maqolada o'g'uz turk qabilalarining ijtimoiy tuzilishi, tarixiy ildizlari, ularning harbiy kuchi va ko'chmanchi hayot tarzi Saljuqiylar davlatining vujudga kelishida muhim omil bo'lgani yoritilgan. Shuningdek, sulola asoschisi Saljuq ibn Taqoq faoliyati va uning avlodlari tomonidan olib borilgan siyosiy kurashlar tahlil qilingan. Alohida e'tibor sulola asoschilari Tog'rubek va Chag'ribek Dovud faoliyati hamda, Dandanoqon jangiga qaratilib, ushbu jang natijasida Saljuqiylarning G'aznaviylar ustidan g'alaba qozonib, mustaqil davlat sifatida shakllanishi asoslab berilgan. Yakunda esa Saljuqiylar davlatining tashkil topishi ichki va tashqi omillarning o'zaro bog'liqligi natijasi ekanligi xulosa qilingan.

Key words: Saljuqiylar davlati, o'g'uz qabilalari, Xazar xoqonligi, Saljuq ibn Taqoq, To'g'ribek, Chag'ribek, Dandanoqon jangi, G'aznaviylar davlati, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, siyosiy beqarorlik, davlatning tashkil topishi, ko'chmanchi jamiyat, harbiy kuch, tarixiy shart-sharoitlar.

Kirish

Saljuqiylarning ajdodlari hozirgi Oltoy va Mog'uliston dashtlaridan to Qora dengizgacha bo'lgan hududlarda hukm yuritgan Turk xoqonligi tarixidagi muhim va asosiy kuchni tashkil qiluvchi urug'lardan biri hisoblangan o'g'uzlar

konfederatsiyasi tarkibida bo'lgan. O'g'uzlar VIII asr o'rtalarida Turk xoqonligining qulashiga sabab bo'lgan ko'chmanchi guruhlar o'rtasidagi urushlarda muhim rol o'ynaganlar.

Xoqonlik qulagandan keyin, O'g'uzlar haqida ma'lumotlar ma'lum muddatgacha uchramaydi. Ular faqatgina IX va X asr musulmon tarixchilar

Compiled on: April 15, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

tomonidan yaratilgan tarixiy manbalarda tilga olinadi.[1] Ba'zi tadqiqotchilar fikricha VIII asrdan Og'uzlar Volga va Sirdaryo oralig'ida davlat tuzilmasini shakllantira boshlagan va Xazar xoqonlariga rasman maqom jihatdan boysunganlar. Saljuqiylar islomni qabul qilguncha ularning bobolari Xazar xoqonligida ko'p aholi e'tiqod qilgan yahudiylik dinida bo'lganligi taxmin qilinadi. Agar shunday bo'lgan taqdirda ularning Xazar xoqonligi bilan munosabatlari anchayin iliq bo'lganidan dalolat beradi.

X asr oxirlarida Saljuqiy sulola vakillari Xazar xoqonlari bilan aloqani uzdi. Bu voqea haqida tarixchilar bir to'xtamga kelisha olishmagan, ba'zi tarixchilar ularni Xazar xoqonligi qulashida isyonchi kuch sifatida ko'rsatadi. Bunga dalil sifatida, Tug'rulbek saroyida xizmat qilgan saroy mulozimi Ibn Hassul bu isyonni aynan Saljuq boshlaganini da'vo qilgan bo'lsa, "Maliknoma" asari muallifi esa isyonni Saljuqning otasi Taqoq boshlab berganini aytadi.[2] Sadridin al Husayniyga tayanadigan bo'lsak, Taqoqning o'g'li Saljuq aynan Turkular maliki bilan tortishuvlardan keyin va joni havf ostida qolganini sabab Jand shahriga ko'chib kelgani aytilsa, boshqa manbalarda Og'uzlarning Buyuk Dashtda ko'chmanchi boshqa turkiy qabila Qipchoqlardan yengilishi sabab bo'lgan deb ishonishadi.

Saljuq o'z qavmi bilan Jandga kelib islomni qabul qilgan va bu keyingi davrda uning vorislari uchun buyuk imperiya qurishda asos bo'lib xizmat qilgan, chunki Saljuqiylar keying davrlarda islom dinini himoyachilari sifatida juda ko'p harbiy harakatlar boshlaganlar. Tahlil va natijalar. Saljuq va uning hamrohlarini Janddagi "kofir" yabg'u ma'muriyatini ta'qib qila boshlaydi. Ular xiroj yig'uvchi o'g'uz omillarini haydadi va Saljuq g'oziy nomini oldi va "Malik al-G'oziy" unvoniga musharraf bo'ladi[3]. Saljuq tez orada musulmon turk aholining qo'llashi bilan Jandni yabg'u Ali qo'lidan ozod qildi va Saljuq ham Movorounahr ichki ishlariga aralashgan va asosan shimoldagi g'ayridin turklar ustidan qozonilgan g'alabalari, Yabg'u Ali omillarini Janddan chiqarib yuborgani saljuqiylarni bu davrda katta kuchga ega bo'lib, ular bilan hisob-kitob qilish darajasiga yetganini amalda ko'rsatib berdi.

Saljuqiy O'g'uzlar Xuroson va Movarounahrda

hukmronlik qilayotgan Somoniylar (865–1005) va Movarounahrning bir qismi bilan Sharqiy Turkistonda hukm surayotgan Qoraxoniylar (992–1212) o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan oqilona foydalandilar. 1005-yilning boshlarida Somoniylar saltanati butunlay tugatildi va ularning mulklari qoraxoniylar va g'aznaviylar orasida bo'lib olindi. Bu vaqtga kelib Saljuqiylar ularni ittifoqqa da'vat qilayotgan hukmdorlar xizmatini qilardilar. Ular mahalliy hukmron xonadon vakillari bilan oilaviy aloqalar tuzdilar. Jumladan, Yabg'u Arslon Buxoroning qoraxoniy hukmdori Ali Tegin ibn Bug'roxonning qiziga uylangan edi. Mikoilning ikki o'g'li esa Abu Tolib To'g'rulbek Muhammad va Abu Sulaymon Chag'ribek Dovudlar Yabg'u Arslon tomonidan Ali tegin xizmatiga yuborilgan edilar.[4]. Aynan shu davrda Movarounahr hududida Saljuqiylar bilan Qoraxoniylar o'rtasidagi munosabatlar ancha taranglashgan davr bo'ldi. Shu siyosiy vaziyat zamirida Saljuqiylar uchun mustaqil davlatchilik sari ilk qadamlar qo'yila boshlandi. Bu vaqtda Ali tegin Buyuk xonlikni tan olmasdan, Saljuqiy Arslon Yabg'u bilan ittifoq tuzib Yusuf Qodirxonga qarshi kurashlar olib bordi. Bu vaqtda Chag'ribek Sharqiy Anodoluga yurishlar boshlagan edi. Buxorodagi qarshilik Buyuk xonlik manfaatlariga zid edi, shu sababdan Yusuf Qodirxon Movorounahrda o'rnashib olishni niyyat qilgan Mahmud G'aznaviy bilan ittifoq tuzishga erishdi. Bu ittifoq Saljuqiylarning keyingi taqdirini tubdan o'zgartirib yuborgan muhim voqea bo'ldi.

Ittifoqo bir vaqt Yamin-ud-davla Mahmud ibn Sabuqtegin Qodirxonga madad berish uchun Jayhunni kechib, Buxoroga borish yo'lida "qiniq" nomi bilan ma'lum bo'lgan bir qabilaning yashash joylari, ularning xaymalariga (o'tov) duch keldi. Uning ko'ziga ular juda ham ko'p sonli, chorvalari esa son-sanoqsiz ko'rindi, ulardan xavotirga tushib, zararlaridan ehtiyot choralarini ko'ra boshladi. U huzuriga ularning peshvolari bo'lmish Mikoil ibn Saljuqni da'vat qilib unga o'z oilasi va qabilasi bilan chiqib Xuroson iqlimi sari borishga buyruq berdi[5] Ko'chirish siyosati majburan amalga oshirilgan, Saljuqiylar ko'chirilganda Ibn al Asir ularni boshlig'lari hayotini ayanchli tugaganini aytib o'tadi.

Sulton Mahmud Arslon Yabg'uni huzuriga

chaqirib, u bilan uchrashdi. Sulton Mahmud, Arslon Yabg'uning qo'l ostidagi kuchlar kelajakda o'z davlati uchun xavf tug'dirishi mumkinligini sezib, uni hiyla bilan qo'lga olib Hindistondagi Kalinjar qalasida qamoqqa oldirdi (1025). Arslon Yabg'u yetti yil qamoqda qolib, shu qalada vafot etdi (1032).[6] Bundan ko'rinadiki Mahmud G'aznaviy Saljuqiylarni boshliqsiz qoldirib Xuroson bo'ylab tarqatib yuborishni ko'zlagan edi, chunki ular birga qolsalar G'aznaviylar davlatiga juda katta xavf solar edi. Arslon Yabg'uning halokatini boshqa manbalar ham tasdiqlaydi. Bu vaqtda Mavorounahrda qolgan Tog'rulbek va Chag'ribekning ishlari yurishmay, taxminan 1034-yilda Tug'ul va Chag'rilar Ali Tegin va uning ittifoqchilari qo'lidan katta mag'lubiyatga uchradilar va bu ularni Movarounahrdan qochishga majbur qildi va ular Xurosonga ko'chib o'tdilar.

Bu joyga ularni Xurosonni o'zining oliy hukmdoridan tortib olishni istagan, mansabparast G'aznaviy noibi Horun chorladi. 1035-yil aprelida Horun G'aznaviy josulari tomonidan o'ldirilgach, Saljuqiylar yana qochishga majbur bo'ldilar va janubga Qoraqum cho'lining kimsasiz kengliklari bo'ylab yo'l oldilar. Avvaliga ular buyuk voha shahri Marv tomon yo'l oldilar, biroq ehtimol bu shahar yaxshi himoyalangani bois, ular g'arbiga burilib, Kopetdog' tog'larining shimoliy etagidagi Niso shaharchasidan boshpana topdilar. Bu vaqtda ular Xurosonning chekka sarhadlariga yetib kelgan edilar – bu viloyat G'aznaviy sultoni Mas'ud (1030–1041) hukmronligining “tojidagi gavhar”lardan biri edi.[7] Saljuqiy rahbarlar Ma'sud G'aznaviydan Xurosondagi bir necha viloyatlarni so'rab elchilar yuboradi. Bu vaqtda qiynalgan Saljuqiylar chorvalariga yaylovlar suv va havodek zarur edi. Bu masala ko'chmanchilar orasida sardorning mavqeini saqlashni ta'minlagan. Aynan Shu davrdan Saljuqiylarlar orasida Tog'ul va Chag'irbek Dovudning nufuzi oshib bordi. G'aznaviy hukmdor Ma'sudning ular Xurosonga joylashishidan norozi bo'lib maktubga rad javob berdi va shaxsan o'zi qo'shin tortib Xurosonga bordi. ammo vaziyat u o'ylaganday bo'lmadi kutilmaganda 1035-yili Sha'bon oyida Niso yaqinida sharmandali mag'lubiyatga uchradi va Saljuqiylar talablarini qabul qilishga majbur boldi.

Ma'sud Saljuqiylarga Kopetdog' tog'larining shimoli-g'arbiy etaklarida joylashgan uchta asosiy shahar(Niso, Dehiston, Farova) ustidan hukmronlikni tan oluvchi yorliqlar taqdim etdi va Saljuqiy boshliqlarga dehqon unvonini ham berdi. 1036-yil noyabrda ular elchilar yuborib, oldingidan ham kattaroq hududlarni – Saraxs, Obivard va hatto Marv shaharlarini olishni talab qildilar. Bu esa Ma'sud G'aznaviy va Saljuqiylar munosabatlarini yanada keskinlashtirdi. G'aznaviylar tomonidan kutilayotgan qarshi harakat Saljuqiylar guruhining biroz muddat orqaga chekinishiga olib keldi. Ammo shunga qaramay Saljuqiylar to'xtab qolmadilar va yurishlarni davom ettirib deyarli hech qanday ogohlantirishlarsiz 1037-1038 yillarda Balxdan boshqa butun Xurosonni o'z tasarrufiga oldilar. Yirik shaharlar Marv va Nishopur tuzilajak Saljuqiylar davlati asosi bo'lib qoldi. 1038- yil rasman Saljuqiylar davlati tuzilgan sana hisoblanadi.

Xurosonda bo'layotgan ishlarga Ma'sud G'aznaviy shunday qarab tura olmas edi va u amaliy choralar ko'rishga majbur boldi, shu maqsadda juda katta qoshin Saljuqiylar tomon safarbar etildi. Sulton Ma'sud G'aznaviy shunday ko'p qo'shin yig'diki, agarda ular (o'q) otilsa edi asrning tayanichig'iga tegib, yerga yakson qilishardi, agarda Vaqt harakatiga do'q urganlarida u qochib ketardi. Sultonning yuzta osmono'par baland fillari bo'lardi. U xazina eshiklarini ochib, askarlariga barcha pul zahiralarni berdi va shundan keyin Balx tevaragiga kelib, qal'a darvozalarini yopib, muhorabaga tayyor bo'lib turdi.[8] Bu vaqtda Chag'irbek Dovud o'zlashkari bilan G'aznaviy hukmdorni Balxda qamal qildi va unga vaxshiy burgutdek tashlandi. U sultonni Balxda 2-yil qamalda ushladi va oxiri 1039 -yili Sulton Balxni tark etdi, uning ortidan 100 ming kishilik lashkari borardi. u bir tomondan Tog'ulga, ikkinchi tomondan esa Chag'irbek Dovudga jang olib borishga majbur bo'ldi.

1039-1040 yillarda Saljuqiylar va Sulton o'rtasida Marv, Nishopur va Saraxsda to'qnashuvlar bo'lib o'tdi. Sarsaxsdagi mahorabada Ma'sud G'aznaviy Saljuqiylar ustidan g'alabaga erishdi bu esa amalda hech qanday foyda keltirmadi Saljuqiylar o'zlarini tezda tiklab oldilar va axiyri ularning kuchlari Dandanakon darvozalarida hal qiluvchi mahoraba uchun saf tortdilar (1040. y.)

Bu vaqtgacha G'aznaviylar yirik qo'shini taxminan 100 ming bo'lgani va tarkibida 60 ta fil ham borligi ta'kidlanadi. Saljuqiy turkmanlar ularga qarshi dasht jang strategiyasini qo'lladi yani son jihatdan yirik qo'shinni siljishga majbur etdilar. Sahro bo'ylab barcha quduqlarni o'limtiklar bilan to'dirib tashlab, yirik qo'shinni sahroda holdan toydirdi, uni ustiga mayda mayda hujumlar bilan ham Sulton qoshinlari ruhiyatini tushirib yubordi. Dandanaqon qa'lasini yaqinida hal qiluvchi jangda Saljuqiylar qo'shini G'aznaviylar qo'shinini yakson qilib tashladi va Mas'udning o'zi bir amallab qochishga ulgurdi. Dandanaqon jangida (1040-yil 24 may.) g'alaba qozonganilgach saljuqiylar beylari To'g'rubekni "Xuroson amiri" deb e'lon qildilar. Xulosa: Shu tariqa endi ular Xurosonda butunlay mustaqil davlatni yaratayotgan, kelajakdagi buyuk imperiya sari ilk qadamlarini qo'ydilar.

Shuningdek, o'sha davr urf-odatiga ko'ra, atrofdagi hukmdorlarga g'alabani e'lon qiluvchi "fathnomalar" yuborilgan. Aynan shu o'ning o'zida Saljuqiylar yetakchilari Marv shahrida to'planib, muhim qarorlar qabul qilgan qurultoyini o'tkazdilar. Qurultoyda qabul qilingan eng muhim qarorlardan biri – Abbosiy xalifasi Qoim bi-Amrillah (1031–1075)ga sadoqat izhor etish va Xurosonda adolatli boshqaruvni qaror toptirish bo'yicha bayonot berish bo'ldi. Shundan keyin, Saljuqiylar o'zlari nazorat qilayotgan hamda kelajakda egallashni rejalashtirgan hududlarni qadimiy turkiy davlat boshqaruvi an'analari asosida o'zaro taqsimlab oldilar. Mazkur taqsimotga muvofiq, To'g'rubek "Sulton" maqomini olib, Nishopur viloyatini boshqarishga kirishib, Iroq yo'nalishiga yurish boshladi. Chag'ribek "Malik" unvoni bilan Marvni markaz qilib, Jayhun (Amudaryo) bilan G'azna oralig'idagi yerlarga egalik qildi.

Muso Yabg'uga esa Bust, Hirot va Seiston atrofidagi mintaqalar birlashtirildi. Sulola a'zosi bo'lgan shahzodalar esa maxsus topshiriq asosida har biri ma'lum bir hududni egallash va boshqarish uchun tayinlandi. Shu tariqa, Saljuqiylar keng ko'lamli yurishlarga kirishib, qisqa vaqt ichida ko'plab hududlarni o'z tasarruflariga oldilar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Saljuqiylar sulolasi juda murakkab davrda, ikki qudratli sulola orasidagi nizolardan unumli foydalandi va hukmdorlarning

oqilona siyosati sabab keyingi davrda islom olamida chuqur iz qoldirgan turkiy va forsiy ananalarni o'zida jamlagan, yirik imperiya sifatida tarixda qoldi. Aynan ularning say harakatlari orqali O'rta Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlari yana bir bayroq ostida birlashdi.

References

1. Peter B. Golden. The Migrations of the Oğuz, // *Archivum Ottomanicarum*, 1972, Vol.4 P. 45-47
2. Mehmet Altay Köymen, *Büyük Selçuklu İmparatorluğu Tarihi*, vol. I: Kuruluş Devri, Ankara.: 1979. B. 18–36
3. Ibn al-Asir. *Al-Komil fit-Tarix*. T.: O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, 2005. – B. 193
4. Ibn al-Asir. *Al-Komil fit-Tarix*. T.: O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, 2005. – B.184-185
5. Sadriddin al-Husayniy. *Axbor ad davlat as saljuqiya* T.: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2018. – B.15
6. Erdogan Merchil "Müslüman-türk devletleri tarihi". Istanbul.: Bilge Kultur Sanat, 2013. – B. 54-55
7. A.C.S.Peacock. *The Great Seljuk Empire*. Edinburgh.: Edinburgh University Press, 2015.- P. 33
8. Sadriddin al-Husayniy. *Axbor ad davlat as saljuqiya* . T.:Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2018. – B. 24